



XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI KENGASHINING QARORI

2024-yil 29-avgust

VI-102-89-7-0-K/24

Samarqand viloyati

Samarqand viloyatida tashqi reklama obyektlari uchun yig'imlar miqdorini belgilash to'g'risida

Viloyat hokimining 2024-yil 9-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi "Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 428-son qarori ijrosini ta'minlash haqida"gi (5-7-0-Q/24-son) qarori ijrosini ta'minlash maqsadida viloyat Raqobatni rivojlantirish va Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasining 2024-yil 19-iyuldagi (N-08-2748-03/07-son) murojaati, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 31-iyuldagi (01/01-32/113-son) xulosasi hamda viloyat hokimi birinchi o'rinbosari F.Abilovning 2024-yil 1-avgustdagi (734/01-30-son) bildirgisiga asoslanib xalq deputatlari viloyat Kengashining oltinchi chaqiriq, bir yuz ikkinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

Tuman va shaharlarning iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib, 0,5 dan 3,0 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 1-ilovaga;

Yig'im miqdorini belgilash hamda to'lov stavkalari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, yig'im xususiylashtirilgan, ijaraga berilgan yoki nodavlat tashkilotlarga doimiy foydalanish huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkalari, shuningdek, xususiy mulk bo'lgan binolar va inshootlardagi

tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) uchun ham tatbiq etiladi.

2. Viloyat Raqobatni rivojlantirish va Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi (M.Xamrayev) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda:

tashqi reklama obyektlarini (konstruksiyalari) tizimli monitoring qilish va ularni qonuniy joylashtirilganligini o'rganish;

tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari) joylashtirilgan reklamalar, shu jumladan, ijtimoiy reklamalar hisobini yuritish;

yo'lning qatnov qismida aholi turar-joy binolarining tashqi qismida har qanday turdagi shaxsiy e'lonlarni joylashtirilishiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rsin.

3. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2020-yil 21-avgustdagi "Viloyatda tashqi reklama obyektlariga tashqi reklamani joylashtirish uchun yig'imlar miqdorini belgilash to'g'risida"gi 79/12-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Viloyat hokimligi axborot xizmati matbuot kotibi (M.Mirzayev), viloyat hokimligi huzuridagi "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi" (N.Norbekov) ushbu qarorni ommaviy axborot vositalarida chop etilishini hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlansin.

5. Mazkur qaror ijrosi yuzasidan nazorat olib borish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (F.Nasrullayev) hamda viloyat hokimining birinchi o'rinboasri (F.Abilov) zimmasiga yuklansin.

6. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



S.Usmonov

Xalq deputatlari Samarqand viloyati
Kengashining
2024-yil 29-avgustdagi
VI-102-89-7-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Viloyatida tashqi reklama obyektlariga (konstruksiyalariga) tashqi reklamani joylashtirish maqsadida tuman va shaharlarning iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib, 0,5 dan 3,0 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Shaharlar va tumanlar nomi	Kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyent
1.	Samarqand shahri	0,78
2.	Kattaqo'rg'on shahri	0,78
3.	Samarqand tumani	0,77
4.	Jomboy tumani	0,77
5.	Toyloq tumani	0,77
6.	Bulung'ur tumani	0,77
7.	Ishtixon tumani	0,76
8.	Urgut tumani	0,76
9.	Pastdarg'om tumani	0,77
10.	Oqdaryo tumani	0,76
11	Narpay tumani	0,76
12	Nurobod tumani	0,76
13	Kattaqo'rg'on tumani	0,76
14	Payariq tumani	0,76
15	Paxtachi tumani	0,76
16	Qo'shrabot tumani	0,76

Xalq deputatlari Samarqand viloyati
Kengashining
2024-yil 29-avgustdagi
VI-102-89-7-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Viloyatida tashqi reklama obyektlariga (konstruksiylariga) tashqi reklamani joylashtirish maqsadida yig‘im miqdorini belgilash hamda to‘lov stavkalari

№	Reklama obyektlarining turlari	O‘lchov birligi	Bir oyga 1 m.kv uchun (BXMning %da)
I. Yer uchastkalarida o‘rnatilgan alohida turuvchi konstruksiylar			
1.1	kichik formatdagi (2,2 kv.m.gacha)	1 kv.m	6
1.2	o‘rta formatdagi (2,2 kv.m.dan 12 kv.m.gacha)	1 kv.m	5
1.3	katta formatdagi (12 kv.m.dan 18 kv.m.gacha)	1 kv.m	5
1.4	o‘ta katta formatdagi (18 kv.m.dan ortiq)	1 kv.m	5
1.5	Hajmli-fazoviy qurilma	1 kv.m	6
1.6	bayroqli reklamalar to‘plami (kompozitsiya)	1 kv.m	5
1.7	reklama modullariga ega ko‘rsatkichlar	1 kv.m	5
1.8	umumiy maydoni 3 kv.m.dan ortiq afisha devorlar	1 kv.m	5
II. Binolar, inshootlar va qurilmalardagi reklama konstruksiylari			
2.1	binoning tashqi qismida joylashtirilgan konstruksiylar	1 kv.m	5
2.2	binolarning tom qismlaridagi konstruksiylar — me‘moriy shakl (haykallar)	1 kv.m	6
2.3	pavilonlardagi konstruksiylar	1 kv.m	5
2.4	ko‘cha mebeli, xususan, reklama moduli o‘rnatilgan o‘rindiqlar	1 kv.m	6
2.5	maydonli to‘siqlardagi konstruksiylar	1 kv.m	5
2.6	ko‘priklarda, yo‘l o‘tkazgichlar, quvur liniyalari, yoritish tirgaklarida o‘rnatilgan	1 kv.m	6

	konstruksiyalar		
2.7	markizlar	1 kv.m	5
III. Tashqi reklama vaqtinchalik obyektlari (konstruksiyalari)			
3.1	qurilish maydonchalaridagi 2 kv.m va undan ko'p bo'lgan vaqtincha reklama to'siqlari	1 kv.m	5
3.2	jamoatchilik e'tiborini jalb qilish maqsadida joylashtirilgan, reklama tusiga ega bo'lmagan, umumiy maydoni bir kvadrat metrdan ko'p bo'lgan e'lonlar	1 kv.m	5
3.3	vaqtincha turdagi kiosklar va pavilonlardagi reklama	1 kv.m	5
3.4	plakatlar, chodirlar, soyabonlar, kanoplar, bayroqlar, osma bayroqlar, yelkanli bayroqlardagi reklama	1 kv.m	5
3.5	nostandart shakldagi konstruksiyalar	1 kv.m	10
3.6	promoqurilmalar	1 kv.m	10
IV. Yorug'li-diodli monitorlar, elektr ekranlar (video ekranlar, yuguruvchi satrlar displeylari va boshqalar)			
4.1	Yorug'li-diodli monitorlar, elektr ekranlar	1 kv.m	15
4.2	Prizmatronlar	1 kv.m	10
V. Transport vositalarida (yo'nalishlardagi avtobuslar bundan mustasno) reklamani joylashtirish uchun bir yillik to'lov			
5.1	Yengil transport vositalari	dona	200
5.2	Yuk avtotransport vositalari	dona	300

Izoh: BXM (bazaviy hisoblash miqdori) 01.12.2023-yil holatiga 340 000 so'm. BXM o'zgarganda 1 m.kv uchun so'mma miqdori mos ravishda o'zgarib boradi.

Tashqi reklama obyektlariga (konstruksiyalariga), yorug'li-diodli monitorlar, elektr ekranlarga reklamani joylashtirish uchun yig'imlar miqdorini hisoblashda tuman va shaharlarning koeffitsiyentlari qo'llaniladi.